

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLISHI**

Ro'yxatga olindi
№ BD 5141000-3.10
«___» _____ 2008 y.

«Tasdiqlandi»
O'z.R. OO'MTV

«___» _____ 2008 y.

**AN'ANAVIY QO'SHIQCHILIK
VA MAQOM ASOSLARI**

fani dasturi

Bilim sohasi: 100000 – ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 - O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriyat yo'nalishi: 5141000 – Musiqiy ta'lim

TOSHKENT – 2008

TUZUVCHILAR: professor Q.M.Mamirov
Katta o'qituvchi D.Q. Qodirov

TAQRIZCHILAR: i.f.n. I. Qahhorov
P.f.n. professor R.Tursunov

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi «Ta'lim» o'quv-metodik birlashmasida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

2008 yil « 6 » iyuldagi 11-sonli majlis bayoni.

Oliy va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2008 yil « 8 » iyuldagi 14-sonli qaydnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Anʼanaviy qoʻshiqchilik va maqom asoslari fanining asosiy maqsadi – talabalarning xalq qoʻshiqchiligidagi ijro malakalarini, dostonchilik, katta ashula, oʻtmish bastakorlar ijodi – musanniflik, mulaxxinlik, nagʻmanavozlik, nagʻmaovozlik, nagʻmapardozlik, nagʻmasozlik kabi uslublar, oʻzbek xalq uslublar, oʻzyuek xalq musiqa merosining eng nodir durdonasi hisoblangan muqomlar boʻyicha nazariy bilimlar va amaliy tavsiyalar berishdan, talabalarga xalq qoʻshiqlarini jamoa boʻlib kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish texnologiyasi boʻyicha mukammal bilim beri shva jamoga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat.

Kursning fan boʻyicha quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.

Anʼanaviy qoʻshiqchilik asoslarini oʻrganish;

Anʼanaviy ijrochilikda xalq qoʻshiqlari 4 turi haqida tushuncha berish. Mehnat qoʻshiqlari, mavsum marosim va urf-odat qoʻshiqlari, lirik qoʻshiqlari, termalar.

Anʼanaviy qoʻshiqchilik namunalari ijrosi bilan amaliy tanishish, talabalarning milliy musiqiy maʼnaviyatimiz haqidagi bilim darajasini kengaytirish, repertuarni boyitish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bogʻlash, talabalarning milliy anʼanalarga boʻlgan qiziqishi va hurmatini oshirish; oʻzbek xalq qoʻshiqchiligiga xos; nola, qochirim, maromiga yetkazib kuylashga odatlantirish; jamoa boʻlib kuylashning tabiati, didaktik tamoiillari va boshqa qoidalarini bilib olish; xalq qoʻshiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash boʻyicha yuksak badiiy dtdga ega boʻlish; talabalarni umumiy musiqiy qobiliyatlarini oʻstirish;

Kuylash va ishlash jarayonida inson organizmida roʻy beradigan psixo-fiziologik va holatlarni his etish va unga koʻnima hosil qilish; xonandalarga va maqomchilar dastasi rahbariga qoʻyiladigan talablarni bilish va maqomchilar dastasi rahbariga qoʻyiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.

Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixidan (folklor, xalq qoʻshiqchiligi va nota yozuvlari) 4 turdagi xalq qoʻshiqlari

Ud sozi haqida. Kelib chiqishi, sozlanishi, undan foydalanish.

Maqom haqida tushunchalar. Rivoyatlar, traktatlar.

12 maqom tizimi, turlari.

Sharq nota yozuvi haqida.

Al-Farobiy, A.Jomiy tanbur tabulaturasi. Qadimiy kuylar va ularning shakllari. shashmaqom haqida tushunchalar. Mushkulot va nasr. Shashmaqomning cholgʻu boʻlimi (mushkulotning qismlari). Namunalar va ularning turlari. Shashmaqom ashula boʻlimining 2-qismi (shoʻʻbalari).

Xorazm maqomlari (olti yarim maqom haqida) Toshkent-Farg'ona maqom (tuzilishi). Maqom ijrochiligiga doir (xonandalar tajribasi haqida).

Amaliy mashg'ulotlar.

«Ko'rmadim» D.Zokirov musiqachi, A.Navoiy g'azali. «Andijon samosi» xalq ashulasi. «Fig'on-1» Furqat g'azali. «Soqinomai bayot» A.Navoiy g'azali. «Xanuz» A.Navoiy g'azali. «So'lim» I.Ikromov musiqasi, Furqat g'azali. «Judo» F.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy g'azali. «Saroxbori oromjon» Bobur g'azali. «Oromijon» BObur g'azali. «Nasrulloi» A.Navoiy g'azali. «Nasrulloi»ning birinchi taronasi.

O'zbek xalq qo'shiqlari

Bilakuzuk, (aytishuv). Qilpillaama. Xalq she'ri. Ey voy sanam. Xalq she'ri. Tanovar I. Muqumiy g'azali. Qoraqosh. (aytishuv). Yali-yali. A.Navoiy – xalq qo'shig'i. Ililla yor. Xalq she'ri. Qo'shchinor. A.Navoiy g'azali. Ulkun jonon. Muqumiy g'azali. Farg'onacha jonon-II. Muqumiy g'azali.

Bastakorlar asarlari

«Etmasmidim» K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g'azali. «Bu ko'ngil» K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g'azali. «Ne ajab» O.Nuritdinov musiqasi, A.Navoiy g'azali. «Koshki» Yu.Rajabiy musiqasi. Navoiy g'azali. «Yor mehri» Yu.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali. «O'ynasin» T.Jalilov musiqasi, Uyg'un she'ri. «Diyorimsan» K.Jabborov musiqasi, Xabibiy g'azali. «Muftalo bo'ldim senga» K.Jabborov musiqasi, Navoiy g'azali. «Ey sabo» D.Zokirov musiqasi, Navoiy g'azali. «Qiz qo'shig'i» Yu.Rajabiy musiqasi, X.Olimjon she'ri.

Maqom shu'balari

«Talqinchai mustaxzodi navo» Lutfiy g'azali, Navo maqomidan
«Qashqarchai mustaxzodi navo» Furqat g'azali, Navo maqomi
«Soqinomai mustaxzodi navo» Nishotiy g'azali
«Qashqarchai savti kalon» A. O'tar g'azali, Rost maqomidan
«Soqinomai savti kalon» Bobur g'azali, Rost maqomi
«Abduraxmonbegi» Muqumiy g'azali
«Saroxbori dugox-2» taronasi Navoiy g'azali, Dugox maqomi
«Saroxbori dugox-3» taronasi Navoiy g'azali, Dugox maqomi
«Dugox» maqomidan «Oromijon» Bobur g'azali
«Nasri bayot» Nodira g'azali, Rost maqomidan

Bastakorlar asarlari

«Tonmadim» S.Kalonov musiqasi, Navoiy g'azali
«Tokay» K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g'azali
«G'amzasin» R.Tursunov musiqasi, Fuzuliy g'azali
«Nazzora qil» K.Jabborov musiqasi, Navoiy g'azali

«Guluzorim» Xoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi, Navoiy g'azali
«Ushshoq» To'ychi Hofiz musiqasi, Navoiy g'azali
«Qo'sh chinor» Xoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi, Navoiy g'azali
«So'lim» M.Ikromov musiqasi, Furqat g'azali

Maqom shu'balari

Qashqarchai mo'g'ulchai buzruk Atoiy g'azali, Buzruk maqomidan.
Soqinomai mo'g'ulchai buzruk Muazzam g'azali, Buzruk maqomidan.
Safti chorgoh Yusuf Saryomiy g'azali, Dugoh maqomidan. Farg'ona
Shaxnozi Muqimiy g'azali. Chorgoh – A.Navoiy g'azali. Chorgoh-II. Furqat g'azali. Dugoh maqomidan Saroxbori Oromijon Bobur g'azali. Giryay-I
Zavqiy g'azali. Giryay-II Qori Pirim g'azali. Fig'on-II Xabibiy g'azali.

Mustaqil ish

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

I.A.Karimov «Milliy istiqlol mafkurasi» O'zbekiston 2000 yil
R. G'. Qodirov. Musiqa psixologiyasi. T. 2005 yil.
M.Xalilov. Qo'shiqlar xristomatiyasi I-II kitob. T. 2002-2003 y.
R.Tursunov. Qalbimda o'zing borsan. T. 2001 yil.
A.Nazarov. Navolarim senga, ona, yurt. 2001 yil.
M.Jalilov. J.Sadirov Qo'shiqlar xristomatiyasi. O'qituvchi 1995 y.
O.Matyokubov. «Moqomat». T. 2004 y.
I.Rajabov. «Maqom asoslari». O'rta va Oliy o'quv yurtlari uchun metodik qo'llanma. O'zbekiston madaniyat vazirligi malaniyat bo'limi. T. 1992 y. 90 bob.
Yu.rajabiy Shashmaqom. I-II-III-IV-V-VI tomlar. t. G'. Gulom 1956-1971 yillar.
Yu.rajabiy O'zbek xalq musiqasi. V-tom. O'zbekiston Davlat badiiy adabiyoti 1959 yil.
M.Yusupov Xorazm maqomlari 1-2-3 tomlari. T. O'zbekiston 1972-1979 yillar.
«O'zbek xalq musiqasi». T. O'zbek adabiyoti va san'ati. I-IX tom. 1957-1966 yillar.

